



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2025 yil 5-fevral, № 25 (8920)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTINING MALAYZIYAGA TASHRIFI BOSHLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning taklifiga binoan
4-fevral kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Kuala-Lumpur xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Malayziya parlamenti Vakillar palatasi spikeri Johari bin Abdul, ta'lim vaziri Zambri Abdulqodir va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O'zbekiston yetakchisining tashrifi sharafiga faxriy qorovul saf tortdi, ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi.

Prezidentimiz aeroportda Malayziya parlamenti spikeri bilan uchrashuv o'tkazdi. Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

Parlamentlar doirasida faol hamkorlik va almashinuvlarni davom ettirish, o'zaro tashriflar va do'stlik guruhlarini tashkil etish, qonun ijodkorligi masalalarida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish, muhim investitsiyaviy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tashrif dasturining asosiy tadbirlari 5-fevral kuni bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Prezidenti va Malayziya Bosh vaziri oliy darajada muzokaralar o'tkazadi hamda O'zbekiston — Malayziya biznes forumida ishtirok etadi. Sammit yakunida qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolaniishi ko'zda tutilgan.

O'z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

MALAYZIYA — O'ZBEKISTONNING JANUBI-SHARQIY OSIYOGA KIRISH DARVOZASI

O'zbekiston — Malayziya munosabatlarida mutlaqo yangi sur'at kuzatilmog'da. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklikni faollashtirish uchun mustahkam poydevor yaratildi, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida yaqin va konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Biz va jahon

O'tgan yilning may oyida mamlakatimiz Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama aloqalarga sezilarli sur'at bag'ishladi. Uning yakunlari bo'yicha yuqori natijalarga erishildi. Xususan, ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi. Shuningdek, yuqori texnologik loyihalarni ilgari surish maqsadida O'zbekiston — Malayziya sanoat zonasini tashkil etishga kelishib olindi. O'tkazilgan biznes forumi yakunida qiymati 3 milliard dollardan ziyod 19 ta investitsiya bitimi imzolandi.

Har qanday davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda savdo-investitsiyaviy hamkorlik muhim o'rin

tutadi. 2020-yil fevral oyida Malayziya parlamentida 5 nafar deputatdan iborat "Malayziya — O'zbekiston" do'stlik guruhi tuzilgani holda o'sha yili may oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 12 deputatdan iborat "O'zbekiston — Malayziya" parlamentlararo do'stlik guruhi, shuningdek, Oliy Majlis Senatida mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi (Senati) bilan parlamentlararo do'stlik guruhi tashkil etildi.

2024-yilning 7-iyun kuni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Malayziya parlamenti Senati Raisi o'rinbosari Nur Jazlan Mohamad boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



tutadi. Shu ma'noda, birgina 2024-yilda bu ko'rsatkich 2023-yildagiga qaraganda 13,2 foiz o'sib, 100 million AQSH dollaridan oshdi. O'zbekiston hududida Malayziya kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 40 taga yaqinlashdi.

O'zaro munosabatlarni jadallashtirishda ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi

O'zbekiston va Malayziya Senatlari hamkorligiga oid tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish, unda amaliy harakatlar — qonun ijodkorligi, parlament nazorati, qo'mitalar hamkorligi va hududlarni rivojlantirish kabi masalalarni aks ettirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senatida

AYOL TADBIRKORLAR HARAKATI TAHLIL QILINDI

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisni Oliy Majlis Senati Raisi, komissiya raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Unda davlat rahbari tomonidan xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish yuzasidan belgilab berilgan vazifalar ijrosi muhokama qilindi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, faolligini oshirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish yo'lida muhim choralar ko'rilmog'da. Ushbu yo'nalishdagi huquqiy asoslarni mustahkamlash maqsadida yuzga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilini, ijroga qaratildi.

Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligiga ko'maklashish bo'yicha Senat Raisi boshchiligidagi Yangiyo'l tumanining

Qirsadaq mahallasi tajribasi asosida respublikada yangicha tizim yo'lga qo'yildi. 2024-2025-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tayyorlanib, shu asosda faoliyat yo'lga qo'yildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resursidan xotin-qizlar tadbirkorligi loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olindi.

Shunga muvofiq Xalq banki, "Mikrokreditbank", Biznesni rivojlantirish banki orqali xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid 250 ta tavsiyaviy biznes loyiha ishlab chiqildi. "Loyihalar fabrikasi" elektron platformasi ishga tushirilib, foydalanuvchilarga tavsiyaviy biznes loyihalar, sohalar bo'yicha ajratiladigan kredit shartlari bilan tanishish, kreditlarni onlayn rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

AHOLI MANFAATLARI HIMOYASINING MUSTAHKAM KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga oid qator masalalar, jumladan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, aholi o'rtasida yod yetishmasligi kasalliklarining oldini olish, soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Muhokamalarda asosiy e'tibor ularning dolzarbligi, zarurati va ahamiyati, shuningdek, aholi manfaatlariga qay darajada mosligiga qaratildi.

Iste'molchilar huquqlari — doimiy e'tiborda

Majlisiida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddama-modda ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash choralarini kuchaytirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmog'da. Lekin oldi-sotdi munosabatlarida iste'molchilar huquqlarining himoyasini ta'minlash uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati yuzaga kelyapti.

Shundan kelib chiqib mazkur qonun loyihasi bilan sotuvchi iste'molchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda tovarni topshirmagan taqdirda, majburiyatning bajarilmagan qismiga penya to'lashi nazarda tutilmog'da. Bunda penya summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosidan ortiq bo'lmasligi, penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan sotuvchi tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmasligi belgilanyapti.

EKOLOGIK BARQARORLIK ISTIQBOLLARI

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish butun dunyo miqyosida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmog'da. Shu bois keyingi yetti yilda mamlakatimizda ham "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Munosabat

Sohaning huquqiy asosi yaratilib, O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari takomillashtirildi. Bu bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi. "Yashil" energiya manbalarini barpo etish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmog'da. Ushbu hujjatlar doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanilgan holda aholi va tadbirkorlik subyektlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi.

Investorlar uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Bunday sa'y-harakatlar natijasida "yashil" energetika boshqa soha va tarmoqlarning rivoji, aholi turmush darajasi yaxshilanishi uchun yangi drayverga aylanmog'da. Xususan, aholi va tadbirkorlar tomonidan 1 ming megavattli quyosh panellari o'rnatilib, yiliga 1,5 mlrd. kilovatt-soat elektr energiyasi olish yo'lga qo'yildi. "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida uyiga quyosh panellarini o'rnatgan jismoniy shaxslarga bu orqali ishlab chiqarilgan va yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soati uchun 1000 so'mdan subsidiya ajratilmog'da.

ENERGIYA TEJAMKOR UY-JOY QURILISHI — DAVR TALABI

Global iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan muammolardan biri ekani jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmog'da. U inson hayotining barcha sohasiga ta'sir ko'rsatyapti va iqlim o'zgarishi salbiy oqibatlari oldini olish hamda mazkur sharoitlarga moslashish kun tartibining dolzarb masalasi sifatida alohida ahamiyat kasb etyapti.

Mushohada

Ayniqsa, bu borada dunyo tajribasi binolarni qurish jarayonida ularning an'anaviy ravishda loyihalash tizimlarini qayta ko'rib chiqish hamda konstruktiv va texnologik yechimlarga bo'lgan munosabatni o'zgartirishni taqozo etmog'da.

Aytish joizki, rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Niderlandiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda bugungi kunda

quyosh qurilmalari bilan jihozlangan energiya tejamkor binolarning yangi turlarini yaratishga, shuningdek, turarjoy va jamoat binolarini loyihalashda ekologik toza qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, birinchi navbatda, quyosh nurlari energiyasidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilyotir.

Bugungi kunda insoniyat tomonidan tabiiy resurslardan me'yordan ko'proq va noodatiy

tarzda foydalanish natijasida kelib chiqayotgan tabiiy ofat va ekologik ziddiyatlar oqibatlarini anglab yetgan holda mamlakatimizda ham qator qonun va normativ hujjatlar qabul qilingan. Ularda muqobil energiya manbalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan uskuna ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasidagi munosabatlar hamda imtiyozlar belgilab berilgan.

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida mamlakatimizda elektr energetikasini 2025 — 2035-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot o'tkazilib, unda yangi elektr stansiyalari va energiya saqlash quvvatlarini barpo etish, tarmoqda yo'qotishlarni kamaytirish, sohaga raqamlashtirilgan boshqaruvni joriy qilish, elektr energiyasi tannarxini pasaytirish, buning omili sifatida

muqobil manbalarni ko'paytirish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratildi.

Mamlakatimiz tabiiy resurslarga boy hudud bo'lishiga qaramay so'nggi yillarda tadbirkorlikning mislsiz rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ko'payishi sababli energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga o'sib borayotgani ham haqiqat. Shu bois energetika sohasida bir qator muqobil (quyosh, suv va shamol) manbalar asosida yangi loyihalar joriy etilayotgan davrda ham iste'molchilarni barqaror energiya bilan ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmog'da.

Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekistonning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoji yiliga 100 mlrd. kilovattni, ishlab chiqarish esa 81 mlrd. kilovattni tashkil etadi.

AYOL TADBIRKORLAR HARAKATI TAHLIL QILINDI

Belgilangan vazifalar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga, aniqlangan muammolarning tezkorlik bilan hal etilishiga ko'maklashish maqsadida Oliy Majlis Senati hamda Respublika komissiyasi a'zolari hududlarga, mahalliy Kengash deputatlari tuman, shahar va mahallalarga birkirildi.

Natijada 2024-yilning o'zida xotin-qizlarning 251,4 mingi doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi, 54,5 mingi jamoat ishlariga jalb qilindi, 177,1 mingi kasb-hunarlariga, 147,3 mingi tadbirkorlikka o'qitildi. 55,1 mingi xotin-qizga 289 mlrd. so'm subsidiya ajratilib, bandligi ta'minlandi. 206,6 ming xotin-qizga

tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va uni kengaytirish maqsadida 3 trln. 472 mlrd. so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Tadbirda ijobiy ishlar bilan birga, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha ayrim topshiriqlarning ijrosi tanqidiy tahlil qilindi. Ba'zi mahallalarda xotin-qizlarning doimiy bandligini ta'minlash, jamoat ishlariga jalb qilish, hududlarning drayveridan kelib chiqib kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish talab darajasida emasligi aytiladi.

Tijorat banklariga tashabbuskor xotin-qizlarning biznes loyihalari ishlab chiqarishga ko'maklashish, loyihalarning amalga oshirilishini kuzatib borish, ayol tadbirkorlar bilan doimiy muloqot qilish va muammolarini yechish muhimligi

ta'kidlandi. Kamchiliklar yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar, tijorat banklari, hudud rahbarlarining axborotlari eshitilib, bartaraf etish choralarini ko'rish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Majlis davomida Respublika komissiyasi tomonidan kelgusida amalga oshiriladigan ishlar ham urg'u berildi. Norasmiy bandlikni qisqartirish, nogironligi bo'lgan mehnatga layoqatli ishsiz ayollarga e'tibor qaratish, yuqori daromadli va zamonaviy kasb-hunarga xotin-qizlarni o'qitish qamrovini kengaytirish, hududlarning o'sish drayverlaridan kelib chiqib, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish vazifalari belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

AHOLI MANFAATLARI HIMOYASINING MUSTAHKAM KAFOLATI

Munozaralar davomida qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan qator yig'ilishlar, seminarlar o'tkazilgani, ularida berilgan takliflar chuqur tahlil qilindi aytiladi. Asosiy de topilgan takliflar hujjat matnida aks ettirilib, loyiha har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilgani va maromiga yetkazilgani ta'kidlandi.

Qonun loyihasi yuzasidan ma'ruza qilgan deputat Emma Aslanovaning qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi aholining iste'molchisi sifatida huquqlarini himoyalash va oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq sotuvchi shartlashgan muddatda yoki muddatlarda tovarlarni iste'molchiga topshirmasligi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Soliq sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish

Deputatlar tomonidan soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.

Qonun loyihasi yuzasidan Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Sharofiddin Nazarov ma'ruza qildi.

Ta'kidlanidek, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar

Bundan tashqari, qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va yig'imlar to'liq to'langan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi nazarda tutilyapti. Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u tergovga qadar tekshiruv, tergov va birinchi instansiya sud muhokamasi davomida soliqlar hamda yig'imlar, shu jumladan, penyal va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi belgilanmoqda.

Muhokamada deputatlar tomonidan qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir qator takliflar ilgari surildi. Jumladan,



yaratish, soliq sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish, biznes muhitini yaratishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, soliq sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning oldini olish, jinoyat ishlari doirasida tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun qo'shimcha hisoblangan mablag'lar tergov organi depozit hisob raqamidan byudjetga o'tkazilganiga qadar penya hisoblanmasligi haqida yangi norma kiritilmoqda.

Shuningdek, loyihada mulkdorning yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganida, mulkning bozor qiymatida to'lab berilgan kompensatsiya miqdorini soliq daromadi tarkibiga kiritmaslik belgilanyapti.

Qonun loyihasi bilan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil yoki Savdo-sanoat palatasining jamoatchi himoyachi sifatidagi ishtirokini belgilovchi qoidalar ko'zda tutilmoqda.

"Xalq so'zi".

O'rganish

"Mahalla yettiligi": MAS'ULIYAT VA IJRO

Ayni kunlarda Oliy Majlis Senati a'zolari hududlarda mahalliy Kengash deputatlari, "mahalla yettiligi" va aholi bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.

Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiev xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashi kotibiyati faoliyatini bilan tanishdi. Muloqot davomida deputatlar faolligini yanada oshirish, muammolar yechimini hal qilishda Kengash vakolatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratildi.

Senator "mahalla yettiligi" vakillari bilan uchrashuv o'tkazib, mamlakatimizda hayotga tatbiq qilinayotgan islohotlar, yaratilayotgan qulayliklar, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish,

joylardagi muammolarni tezkor hal etish borasida tushuntirishlar berdi.

Shuningdek, Sayxunobod tumani tibbiyot birlashmasining tez tibbiy yordam bo'limi faoliyati, moddiy-texnik bazasi, o'rta va kichik tibbiyot xodimlari hamda bemorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham o'rganildi.

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, fuqarolarning bu boradagi huquqlarini davlat tomonidan kafolatlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda aholining barcha qatlami uchun tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish borasidagi ishlar muhokama qilindi va tavsiyalar berildi.

Senat qo'mitasida

JAMOATCHILIK NAZORATINING ZAMONAVIY TIZIMI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tirdi.

Unda dastlab "Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyaga (Orxus, 1998-yil 25-iyun) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur Konvensiya insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini himoyalashga qaratilgan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Konvensiyaga qo'shilish va normalarni milliy qonunchilik kiritish fuqarolarning farovon atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini, qarorlar qabul qilishda ishtirok etishini va ma'lumot olish huquqini ta'minlaydi. Atrof-muhit sohasidagi milliy qonunchilik amaliyoti ustidan jamoatchilik nazoratining zamonaviy tizimini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Majlis davomida "Umumjahon pochta ittifoqining Ustaviga O'ninchi qo'shimcha bayonnomani (Addis-Abeba, 2018-yil 7-sentabr) va O'n birinchi qo'shimcha bayonnomani (Abidjan, 2021-yil 26-avgust) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Qonun bilan ratifikatsiya etilayotgan ushbu bayonnomalar Umumjahon pochta ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan aloqalarni va xalqaro pochta almashinuvini tashkil etish hamda samarali xizmatlarni barqaror rivojlantirishni nazarda tutadi.

Umumjahon pochta ittifoqiga a'zo davlatlarning belgilangan pochta operatorlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlarida Pochta aloqasi milliy operatori O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini o'z vakolatlari doirasida himoyalash va saqlashda vakillik qilish vazifalarini bajaradi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarorlari ma'qullandi.

"Xalq so'zi".

EKOLOGIK BARQARORLIK ISTIQBOLLARI

O'tgan yili 6 mingdan ortiq jismoniy shaxslar ushbu dasturdan foydalangan va elektr tarmoqlariga o'tkazilgan quyosh energiyasi uchun Davlat byudjetidan qariyb 9 mlrd. so'm subsidiya olgani e'tiborga molik.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilishida iste'molchilarga qulaylik yaratish maqsadida Energetika vazirligi huzuridagi Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasining elektron platformasi (energymarket.uz) ishga tushirildi. Bundan tashqari, sohaga kiritilgan 2 mlrd. dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar hisobiga quvvati 2,7 gigavatt bo'lgan 9 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi. Ayni paytda bir qancha loyihaning qurilishi davom etmoqda. Yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo'shimcha 9,5 mlrd. kilovatt elektr ishlab chiqarilib, 2,5 mlrd. kubometr tabiiy gaz tejaladi. 4,6 mln. tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olinib, 4 mln.dan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta'minlanadi. Bu iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham 4 mlrd. dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga turki bo'ladi.

Xalqaro kompaniyalar bilan umumiy quvvati 20630 megavatt bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha 38 ta shartnoma imzolangan. Umumiy qiymati qariyb 21,121 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan ushbu loyihalar to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hisobiga Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy va Germaniya kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki hamkorligida amalga oshirilmoqda.

2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt "yashil" quvvatlar barpo etilib, umumiy energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Xususan, joriy yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi, 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushirilib, kelgusi yili "yashil" energiya ishlab

chiqarish hajmlari 12 mlrd. kilovatt-soatga yetishi kutilmoqda. Bu energiya resurslarini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni uzluksiz energiya bilan ta'minlash va tabiiy gazni tejash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini yaratadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda daromadga ega bo'lish, atmosferaga chiqadigan zararli chiqindilarni 34 mln. tonnaga kamaytirish mumkin.

Ortib borayotgan talabni qoplash uchun 2030-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 135 mlrd. kilovatt-soatga yetkazish zarurligi taxmin qilinmoqda va bunda saqlash tizimlarining minimal hajmi 4 000 megavatt-soat yoki 8 000 megavatt-soat quvvatga ega bo'lishini nazarda tutuvchi aniq dastur ishlab chiqilgan. Ushbu raqamlarning o'ziyoq mazkur sohadagi islohotlarning ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari faol joriy qilishda noqulay ob-havo sharoitida ham elektr energiya uzluksizligini ta'minlaydigan zaxira quvvatlari – energiya saqlash tizimlari (stansiyalari)ga ehtiyoj ortishi tabiiy. Xitoy kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha doirasida har biri 150 megavatt quvvatga ega ikkita energiya saqlash tizimi ishga tushirildi.

Shu bilan birga, "yashil" energetika yo'nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlik ham kengaytirilmoqda. Bu borada mintaqaviy energiya tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'shni davlatlar bilan yagona platforma ishga tushirilishiga kelishib olindi. Bundan tashqari, xorijiy hamkorlar bilan "yashil" energiyani Yevropa mintaqasiga eksport qilish bo'yicha bitim imzolandi.

Mamlakatimizning "yashil" energetikaga jadalik bilan o'tishi mintaqada ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining energiyaga bo'lgan ehtiyojini uzluksiz ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi.

ENERGIYA TEJAMKOR UY-JOY QURILISHI – DAVR TALABI

Shu bois ham shaharozlik sohasining rivojlanishida energiya samarador binolar qurilishiga e'tibor berilishi, ya'ni shaharozlikda yangi qurilayotgan bino hamda mavjud uylarni kapital ta'mirlashda (rekonstruksiya qilishda) energiya samaradorligini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengroq joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Binolarning ichki issiqlik darajasini bir me'yorda uzoqroq saqlash, tashqi va ichki bino devorlarida energiya saqlovchi qurilish materiallaridan foydalanish muhimligi isbotlanmoqda.

Tadqiqotlarda ko'p qavatli uylarda (1 kvadrat metr maydon hisobidan) bir qavatli uylarga nisbatan yil davomida 2 – 2,5 barobar ko'p energiya tejalihi aniqlangan. Yevropa mamlakatlarida energiya tejash darajasi bo'yicha turarjoy qurilishiga standartlar joriy etilgan bo'lib, qundariy ruxsat berish uchun aniq normalar belgilangan, ya'ni 1 kvadrat metr maydonga 15 kVt/soat energiya ta'minoti me'yori hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkin, O'zbekiston sharoitida energiya tejamkor bo'yicha shaharozlik sohasida ham islohotlar zarur.

O'zbekiston aholisining deyarli yarmi qishloqlarda, o'zi qurgan uylarda istiqomat qilishini inobatga olgan holda

bu jarayonda qishloq va uzoq hududlarda qurilayotgan namunaviy uy, shahar sharoitida esa kam va ko'p qavatli uylarga alohida yondashuv bo'lishi lozimligidan dalolat beradi.

Shuningdek, uylarni istilashda quyosh energiyasidan foydalanish, ayniqsa, passiv quyosh istitish tizimini qo'llashning yuqori samaradorligi dunyodagi yetakchi mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tajribalar natijasida o'tgan asrning 90-yillariga kelib o'z isbotini topdi. Taklif qilinadigan yangi texnologiya o'zining arzonligi va qo'llanishda maxsus mahoratga ega bo'lgan quruvchi mutaxassislarni talab qilmaganligi sababli amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati yuqori.

Rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, AQSHda bu kabi uy 1970-yillarda qurila boshlangan. Energetik tanqislikni boshidan kechirayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun quyoshli uylarning qurilishi va mavjud uylarning energiya samaradorligini oshirish energetik muammoni hal qilishning eng natijador yo'llaridan hisoblanadi.

Asosiysi, quyosh nuri bilan istiluvchi uylar qish faslining anomol sovuq kunlari oddiy uylar kabi keskin sovib ketmasligi tasdiqlangan. Bu ham ahamiyatli natija, chunki aynan shu paytda energiya iste'moli keskin oshgani sababli elektr tarmoqlarida uzilish

va gaz bosimining kamayib ketishi kuzatiladi. Jazirama yoz sharoitida xona harorati kerakli darajada saqlanib turadi va xonani sovitishga sarflanadigan elektr energiya tejalihi isbotlangan.

Bu yo'nalishni ommalashtirishdagi asosiy to'siq aholining energiya tejamkor quyosh nuri bilan istiluvchi uylarning real imkoniyatlaridan xabarsizligidir. Bu borada biz, deputatlar aholi, jumladan, saylovchilarimiz bilan uchrashuvlarda quyosh energiyasidan foydalanishning nafaqat atrof-muhit uchun foydali jihatlarni, balki kam xarajatli va qulay uyda istiqomat qilish imkoniyatlarini kengaytirishni tushuntirishimiz zarur va xalq vakili sifatida har birimiz bunga mas'ulmiz. Vaholanki, davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan sohadagi davlat siyosati o'zida nafaqat energiya resurslarini tejashni, balki atrof-muhit bilan uyg'un yashash go'yisiga asoslangan butun bir falsafani namoyon etib, aholini, shuningdek, kelajak avlodni uzluksiz energiya manbalari bilan ta'minlashga qaratilgan. Zero, har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi energiya manbalari bilan uzluksiz ta'minlanganiga bog'liq.

Narimon UMAROV, Boriy ALIXONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari.

Loyihaning nomi –
“Ziyo ulash”

Adliya vazirligi aholi orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga qaratilgan “Ziyo ulash” loyihasini davom ettirmoqda.



Xususan, vazirlik joriy yilda ushbu targ'ibotni “bukcrossing” orqali targ'ib qilishni, ya'ni kitoblarni erkin almashish tashabbusini ilgari surdi. Endilikda davlat xizmatlari hamda yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, FHDYO organlari va “Madad” NNT byurolarida tashrif buyuruvchilar kitoblarni olib ketishi, o'z navbatida, boshqa kitoblarni qoldirishi mumkin, bu esa bilimlar aylanishini yuzaga keltiradi.

Ma'lumot uchun, ushbu ijtimoiy loyiha o'tgan yilning fevral oyida boshlangan bo'lib, O'zbekistonning barcha hududini qamrab olgandi. Shu vaqt mobaynida adliya organlari ko'magida 200 dan ortiq mahallalarda 50 mingdan ziyod badiiy kitoblar – milliy va xorijiy adabiyot, zamonaviy asarlar hamda huquqiy qo'llanmalar to'plangan kichik kutubxonalar tashkil etildi.

Barqaror suv ta'minoti
yo'lida

Qarshi shahridan Xonobod va Alisher Navoiy ko'chalaridan o'tuvchi diametri 800 mm. bo'lgan ichimlik suvi tarmog'ini yangilash ishlari boshlandi.

“O'zsvu'ta'minot”

Ajdan ma'lum qilishlaricha, ushbu sa'y-harakatlar mahallalarda kuzatilayotgan suv ta'minoti uzilishini bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, yangilanishlar natijasida hududdagi Nasaf, Muxsomobod, Ma'zon, Xontapa, Kamandi, Qilichbek, Qo'rg'oncha kabi mahallalarning ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi. Muhimi, yangi suv quvurlari orqali yuqori bosimda suv yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Bu esa aholiga yanada sifatli hamda barqaror suv ta'minotini taqdim etadi.

Bu loyiha, shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega, chunki u shahar bo'ylab yangi qurilgan halqasimon suv quvurlarini o'z ichiga oladi.

Qatnovlar oraliq'ini
qisqaradi

Toshkent metropoliteni vagon parkiga yana uchta zamonaviy harakat tarkibi qo'shildi. Kelgusi 7 – 10 kun ichida ushbu tarkiblar texnik sinovdan o'tkazilib, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun yo'nalishlarga chiqariladi.



Transport vazirligi xabariga qaraganda, yil boshidan beri poytaxt metrosiga 9 ta yangi harakat tarkibi olib kelindi. Natijada metropoliten parkida zamonaviy yangi harakat tarkiblari ulushi 50 foizdan ortdi.

Harakat tarkiblarining yangilanishi qatnovlar oraliq'ini qisqartirishga yordam berib, xizmat sifatini yanada qulaylashtirmoqda. Fevral oyida yana uchta tarkib kelishi kutilmoqda.

“Xalq so'zi”.

MALAYZIYA — O'ZBEKISTONNING
JANUBI-SHARQIY OSIYOGA
KIRISH DARVOZASI

Malayziya parlamenti Vakillar palatasi spikeri Johari bin Abdul 2023-yil aprel oyida o'tkazilgan O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish bo'yicha referendumda xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2024-yil iyul oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Malayziyaga tashrif buyurdi.



Ikki mamlakat ham ta'lim va kadrlar tayyorlash masalasida hamkorlikka alohida urg'u qaratayotganini ta'kidlash joiz. Birgina Malayziya hukumati Tashkiloti hamkorlik dasturi doirasida O'zbekiston vazirlik va idoralari bilan 900 dan ortiq mutaxassislar mamlakatimizda malaka oshirdi. O'zbekistonlik 500 ga yaqin talabalar Malayziyaning nufuzli universitetlarida tahsil olmoqda. Ikki mamlakat ta'lim muassasalari o'rtasida 25 ta hamkorlik shartnomasi imzolangan. Bu O'zbekiston – Malayziya hamkorligining yuqori dinamikasidan darak beradi. Shu ma'noda, Kuala-Lumpurda o'tkaziladigan mamlakatlarimiz oliy ta'lim muassasalari rektorlarining forumi ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Ammo o'z mintaqasining yetakchi mamlakatlari – O'zbekiston va Malayziya munosabatlarida salohiyatimiz hali to'liq namoyon bo'lmagan, desak, ayni haqiqat. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Prezidentining Malayziyaga tashrif chog'ida erishiladigan bitimlar, kelishuvlar, ahdomalar ikki tomonlama hamkorlikning eng istiqbolli yo'nalishlarida aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Avvalo, sanoat kooperatsiyasi aloqalarini rivojlantirishdan ikkala tomon ham manfaatdor. Malayziyaning yarimo'tkazgichlar sanoati O'zbekiston uchun katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Ahamiyatli, bu soha Malayziya yalpi ichki mahsulotining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Bu jihatdan, Malayziyaning yarimo'tkazgichlar sanoatini rivojlantirishdagi ilg'or tajribasi, deya, strategik rejalashtirish, marketing, infratuzilmani takomillashtirish

va mutaxassislar tayyorlash yo'nalishidagi yutuqlari O'zbekiston uchun foydali bo'ladi. Ikkinchidan, yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim sohasi, o'zaro akademik almashuvlar va kadrlar tayyorlash borasidagi hamkorlikni kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Yaxshi bilim, hozirgi kunda O'zbekistonda turli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining 30 ga yaqin filiallari faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoning “ta'lim markazi” sifatida energetika, islom banki, ekologiya, sun'iy intellekt, halol sanoat, kreativ iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash bo'yicha Malayziya universitetlari bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. Malayziya tomoni ham bu boradagi hamkorlikka katta qiziqish bilan qarayapti.

Uchinchidan, “Markaziy Osiyo + ASEAN” formatidagi muloqot maydonini yaratish maqsadga muvofiq. Bizga yaxshi ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu formatda tashqi ishlar vazirlari uchun muloqot platformasini yaratish taklifini ilgari surgandi. Bu shakldagi muloqotlar mintaqalararo savdo-investitsiya hamkorligi, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika sohasidagi masalalarni yanada samaraliroq hal etish imkonini beradi, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro rivojlanishning dolzarb kun tartibi bo'yicha pozitsiyalarni mustahkamlashga sharoit yaratadi.

Xabarimiz bor, 2025-yil Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN)da raislik navbati Malayziyaga o'tdi.

Fursatdan foydalanib, biz ASEAN doirasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish tashabbusini ilgari surmoqchimiz. Qolaversa, hukumatimiz Markaziy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlariga eksport yo'nalishlarini diversifikatsiyalash masalasini ustuvor, deb e'lon qilgan. Shu ma'noda, mintaqadagi eng yirik davlat – O'zbekiston biz uchun istiqbolli bozor hisoblanadi, Malayziya mamlakatimiz uchun Janubi-Sharqiy Osiyoga kirish darvozasi sanaladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish, mintaqaviy iste'mol bozorlariga chiqish uchun transport-logistika imkoniyatlaridan foydalangan holda savdo-sanoat yo'nalishida hamkorlikni faollashtirish hamda milliy

O'zbekiston Prezidentining Malayziyaga tashrif natijasida har ikki mamlakat “Halol” standartlari va islom banki kabi sohalarida ham o'zaro aloqalarni faol bosqichga olib chiqishi mumkin. Zero, Malayziya halol mahsulotlarning eng yirik eksportchilaridan biri, ayni paytda, islom moliyasining xalqaro markazi sifatida e'tirof etiladi. Demak, bu jabhalardagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbolli.

O'zbekiston – Malayziya madaniy-gumanitar aloqalari ikki xalqning an'analari, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini birlashtirgan o'ziga xos ko'prikdir. O'zaro hurmat va madaniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash istagiga asoslangan bunday yaqin sheriklik mamlakatlar

“O'zbekiston – Malayziya madaniy-gumanitar aloqalari ikki xalqning an'analari, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini birlashtirgan o'ziga xos ko'prikdir. O'zaro hurmat va madaniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash istagiga asoslangan bunday yaqin sheriklik mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashning muhim unsuriga aylanib bormoqda. Mushtarak tarixiy va madaniy o'xshashliklar ta'lim, san'at, ilm-fan, turizm kabi sohalarida tajriba almashish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va o'zaro hamjihatlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratyapti.”

strategiyalarning o'xshashligi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga intilishni ta'minlovchi omillardir.

Munosabatlardagi yana bir muhim yo'nalish – bu tahliiliy va ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan ekspertlar maydonini tashkil etish. Ushbu qadam o'zaro manfaatli eng dolzarb masalalar bo'yicha mintaqaviy darajada qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, konferensiyalar va davra suhbatlari uyushtirish, shuningdek, oliy va yuqori darajadagi uchrashuvlar uchun ekspert-tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashning muhim unsuriga aylanib bormoqda. Mushtarak tarixiy va madaniy o'xshashliklar ta'lim, san'at, ilm-fan, turizm kabi sohalarida tajriba almashish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va o'zaro hamjihatlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratyapti. Malayziya tomoni O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk olimlar va mutafakkirlarning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini yuksak baholagan holda, mamlakatimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, ommalashtirish va asrab-avaylashda

Fikr

TA'LIM VA AMALIYOT
INTEGRATSIYASI

malakali kadrlar tayyorlashning muhim talabi

Davlatimiz rahbari raisligida 2024-yilning 20-iyun kuni o'tkazilgan muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida aytilganidek, yurtimizda texnika yo'nalishidagi 36 ta davlat oliygohidan yiliga 67 ming bitiruvchi chiqadi. Ammo ulardagi dastur va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda muhandislarining 60 foizi o'ziga o'qigan yo'nalishda ishlamayapti.

Oliy ta'lim muassasalari fundamental tadqiqotlar o'tkazish bilan cheklangan, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam. Muhandislik yo'nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar qog'ozda qolib qatyapti.

Toshkent davlat texnika universitetida o'tkazilgan yig'ilishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar tarmoq rahbarlari, olimlar, o'qituvchilar tomonidan tahlil qilindi. Mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi. Binobarin, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun texnika yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi

yetakchi oliy o'quv yurti hisoblanmish universitetimizda ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashda ham samarali faoliyat olib borilyapti.

Ayunki, global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida texnika va texnologik fanlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda, innovatsion uslublarni joriy etgan holda transport vositalaridan foydalanish, yo'l harakati xavfsizligi va logistikaning dolzarb masalalari, avtomobil yo'llari, ko'priklar, tunnellar, yo'l o'tkazgichlar va aerodromlarni loyihalash hamda qurish borasida yetuk kadrlar tayyorlash asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Onlayn firibgarliklardan saqlaning!

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida jurnalist va bloggerlar uchun “Kredit axboroti almashinuv sohasidagi o'zgarishlar: amaldagi holat va kutilayotgan yangiliklar” mavzuida mediamuloqot bo'lib o'tdi.

Mediamuloqot

Unda kredit axboroti tahlili bilan bog'liq so'nggi o'zgarishlar haqida so'z bordi. Jumladan, endilikda jismoniy shaxs o'zining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini

olish uchun kredit bitimini tuzishni kredit byurosiga ariza kiritish orqali taqiqlashi mumkin. Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqlarni olib tashlash to'g'risidagi ariza olingan paytdan e'tiboran kredit

byurosi darhol uni reestrga kiritadi.

Mediamuloqotda ishtirokchilar kredit axboroti tahliliga oid yangi o'zgarishlar hamda kredit byurolari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, kredit axboroti tahlili qanday yuritiladi, kredit tarixi yomonlashishiga sabab bo'ladigan omillar, onlayn firibgarliklardan himoyalovchi – “Freeze” xizmati bilan bog'liq va shu kabi boshqa savollarga mutaxassislardan atroflicha javob olindi.

“Xalq so'zi”.

Umidli yoshlarimiz
Buyuk Britaniyaning
eng nufuzli mukofoti
bilan taqdirlandi

Buyuk Britaniyada ta'lim olgan bitiruvchilarga beriladigan nufuzli mukofotlardan biri, bu – “UK Study Alumni Award”. Ushbu mukofot o'z sohasida katta yutuqlarga erishgan va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatgan insonlarni e'tirof etadi. Mazkur sovrin butun dunyo bo'ylab minglab nomzodlar orasidan eng ilg'or bitiruvchilarni aniqlaydi. Uning toifalariga biznes va innovatsiyalar, madaniyat hamda ijodkorlik, fan va barqarorlik, ijtimoiy faoliyat kiradi.

Faxr

“El-yurt umidi” jamg'armasining stipendiatlari Sirojiddin Olimov (“Edinburg” universiteti magistratura bosqichi bitiruvchisi) va Orzigul G'oyibova (“Bristol” universiteti magistratura bosqichi bitiruvchisi) Buyuk Britaniyaning nufuzli “Study Alumni Award – 2024” mukofoti bilan taqdirlandi.



Jamg'arma axborot xizmati xabarida qayd etilganidek, Sirojiddin Olimov respublikamiz yoshlari orasida mashhur bo'lib ulgurang “Mutolaa” loyihasi uchun, Orzigul G'oyibova esa yoshlarni dunyoning eng yetakchi oliyog'lariga kirishi va grantlar yutishiga ko'maklashadigan “TOP – 100” hamda respublikamizdagi xotin-qizlar orasida ta'limni rivojlantirishga qaratilgan “PORLA” ijtimoiy loyihalari uchun taqdirlandi.

“El-yurt umidi” jamg'armasi ushbu stipendiatlarga o'z loyihalarini yanada rivojlantirish uchun moddiy rag'bat berish ham ko'zda tutilganini qayd etgan.

Darvoqe, Sirojiddin Olimov va Orzigul G'oyibova bugungi kunda Yoshlar ishlari agentligida faoliyat olib borayotir hamda yurtimiz yoshlari uchun manfaatli bo'lgan loyihalarga koordinatoriqlik qilib kelmoqda.

Diyora YUSUPALIYEVA,
O'zDJTU talabasi.

